



Saparboyev Kamronbek

*Buxoro Davlat Universiteti Tarix va yuridik fakultiteti Siyosatshunoslik ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Bugungi maqolamizni yozishdan maqsad jamiyatimiz, ma'naviyatimiz, hayotimiz, dinimiz va albatta kelajagimiz kushandasi bo'lgan korrupsiyaga qarshi kurashda ozgina bo'lsa ham o'z hissamizni qo'shishdir, zero korupsiyasiz jamiyat qurish bizning qo'limizdadir.

**Kalit so'zlar:** *Korrupsiya, jamiyat, davlat, hukmdor, xalq, tarix, kelajak, hokimiyat, siyosat, huquq.*

## **КОРРУПЦИЯ ПО ОТНОШЕНИЮ ОБЩЕСТВА**

**Сапарбоев Камронбек**

*студент факультета истории и права Бухарского государственного университета, политология.*

**Аннотация:** *Цель написания сегодняшней статьи – внести небольшой вклад в борьбу с коррупцией, которая является основой нашего общества, духовности, жизни, религии и, конечно же, нашего будущего, ведь в наших руках построить общество без коррупции.*

**Ключевые слова:** *Коррупция, общество, государство, правитель, народ, история, будущее, власть, политика, право.*

## **CORRUPTION TOWARDS SOCIETY**

**Saparboyev Kamronbek**

*a student of the Faculty of History and Law of Bukhara State University, Political Science.*

**Annotation:** The purpose of writing today's article is to make a small contribution to the fight against corruption, which is the basis of our society, spirituality, life, religion and, of course, our future, because it is in our hands to build a society without corruption.

**Key words:** Corruption, society, state, ruler, people, history, future, power, politics, law

*Korrupsiya avj olgan davlat, go'yo ichidan yemirilgan mo'rt daraxtga o'xshab qoladi. Shak-shubha yo'qki, u birinchi jiddiy sinovga duch kelishidayoq qo'ndiriladi!*

*Teador Drayzer*

Maqolamizni aynan shu iqtibos bilan boshlashga qaror qildik yoxud buyukalar gapiradi biz takrorlaymiz, dastlab korrupsiya haqida qisqacha aytib o'tamiz. Korrupsiya bilamizki mansabdor shaxsning o'z lavozimini suiste'mol qilgan holda pora olishi

tushuniladi. Bu qisqacha ta'rifi, biz bilgan jirkanch korrupsiya bugun payda bo'lgani yo'q, korrupsiya har bir davrda hamda har bir davlatda bo'lgan narsa buni inkor qilib bo'lmaydi. Korrupsiyani har joyda uchratishimiz mumkin jumladan, Siyosiy tashkilotlar, katta banklar, boshqaruv organlari, sport, tibbiyot sohasi, saylovlarda, bozorlarda, huquq tizimi va eng achinarlisi ta'lim tizimida. Korrupsiya bir necha salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, irqiy ayirmachilik, millatchilik, shovinizm, genotsid va fuqorolar urushi bilan ham yakunlanishi mumkin, bunga tarix guvoh. Shuningdek korrupsiyaga qadimdan hozirgacha kurashilib kelinmoqda, lekin negadir umuman yo'q bo'lib ketmaydi. Chunki bu insoniyatni genida bor, har bir odam hammadan ko'ra yaxshi yashashni, boy bo'lishni va alohida mansablarga ega bo'lishni orzu qiladi. Nima oqibatlarga olib kelishini esa har safar unataveradi chunki "inson" so'zi unutuluvchi degan ma'noni bildiradi-da. Korrupsiyaga nazar tashlar ekanmiz buni uchta davrga bo'lish mumkin o'tmish, bugun va kelajak. Korrupsiyani hozir ko'rayotganimiz yo'q, qadimgi davrda korrupsiya vabo kabi tarqalgan vaqtlari ham bo'lgan. Suqrot o'z qarshlarida ushbu illatlarda qoralagan, lekin uni fikrlari ayrim kimsalarga yoqamay qatl qilishgan. Mutaffakirimiz Abu Nasr Farobiy o'zining "fozil odamlar shahri" asarida ushbu illat vakillarini "johil odamlar shahri"ga kiritadi. Hozirgi kunda ham korrupsiyani turli joylarda uchratishimiz mumkin, vaholangki bu qilingan har bir ish ertaga o'zimizga, kelajakimizga va daxshatli jamiyatimizga misli ko'rilmagan darajada salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi bizni tashvishga solmayapti. Shu yo'sinda hech narsa o'zgarimasdan ketaversa biz- siz orzu qilgan kelajakimizni o'z qo'limiz bilan barbod qilishimiz mumkin.

Korrupsiya bu keng tushuncha, tarixda ham hukumdorlar va zamonaviy dunyoda prezidentlar ham bu illatga qarshi kurashganlar, lekin har doim ham bunga erisha olmay, ayrimlarini istefosi bilan, ayrimlarni esa hato o'limi bilan ham aykunlangan holatlar bo'lgan. Biroq tangani ikki tarafi borliginiyam unutmasligimiz kerak jumladan, buyuk bobokalonimiz Amir Temur, Xiva xonligi Qo'ngirotlar sulolasi vakili Muhammad Rahimxon II (Feruz) va AQSHning yigirma oltinchi prezidenti Teodor Ruzvelt, Gruziya prezidenti Mixail Sakashivili mamlakatlarini korrupsiyadan tozalashda havas qilgudek natijalarga erishganlar. Yuqorida nomi zikr etilgan shaxslarni antikorrupsiya bo'yicha qilgan islohotlartini birgalikda ko'rib chiqamiz.

Nomini dunyoga tanitgan davlat arbobi, mohir sarkarda va ulug' podshoh Amir Temur davlatini hamma davlat havas qilgudek darajaga yetkazgan kam sonli shaxslardan biri hisoblanadi. Bu ishlarni amalga oshirish oson bo'lmagan, Amir Temur adolatliligi bilan bir paytda qattiq qo'l ham edi, qo'l ostida mulozimlari undan qo'rqqar va davlatga hiyonat qilmas, pora olmas va mamlakatda adolatliligi siyosat yuritilardi. Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari" asarida shunday degan:

"Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishlari lozim; birinchisi – asillik, toza nasllilik; ikkinchisi – aql-farosatlilik; uchinchisi – sipoh-u raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan yaxshi muomalada bo'lishlik; to'rtinchisi –sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Kimki shu to'rt sifatga ega bo'lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiq kishi deb bilsinlar. Uni vazir yoki maslahatchi etib tayinlasinlar. Mamlakat ishlarini, sipoh va raiyat ixtiyorini unga topshirsinlar. Bunday vazirga to'rt imtiyoz; ishonch, e'tibor, ixtiyor va iqtidor berilsin. Kamolatga erishgan vazir ulkim, davlat

muomalalarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko'rsatib, ajoyib tarzda bajaradi. Olgulik joyidan olib, bergulik yerga beradi. Ruxsat etuvchi va ta'qiqlovchi buyruqlarida uning asilligi va toza naslligi ko'rinib tursin. Dushmanlik va jabr-zulm qilmaydi. Xoh sipohdan, xohraiyyatdan bo'lsin, har kimning nomini yaxshi so'zlar bilan tilga oladi. Birovdan yomonlik axtarmaydi, aytsalar eshitmaydi. Agar birovdan yomonlik ko'rgan bo'lsa, unga nisbatan shunday muomala qiladiki, u shaxs oxiri yomonligidan qaytadi. O'ziga yomonlik qilgan odamga nisbatan shunday yaxshilik qiladiki, u oldiga bosh egib keladi"

Bu bilan Amir Temur davlatga bo'lgan xiyonatlarni, siyosiy boshboshdoqliklarni, oddiy xalqqa o'tkazilishi mumkin bo'lgan jabr-zulmlarni Poraxo'rliklarni ya'ni korrupsiyani oldini olib qoladi va buni ajoyib tarzda unddalaydi. Amir Temur poraxo'rlikdan nafratlar edi hamda hozirgi tilde aytadigan bo'lsak korrupsiyaga nisbatan doim kurashardi. Amir Temur kimda kim mol-mulkka, davlatga va xalqqa xiyonat qilib pora olsa faqat bitta jazo- o'lim jazosini berishni qonunga kiritgan edi. Shuning uchun ham Temuriylar saltanati uzoq vaqt davomida buyuk davlalar qatorida turgan mamlakat bo'lib qoladi. Amir Temur adolat ramzi sifatida tarixda qoldi.

Yana bir o'zbek hukumdorlaridan biri Muhammad Rahimxon II ham o'zining davlat boshqaruvidagi siyosati, madaniyat homiysi bo'lganligi va chuqur islohatlari tufayli tariximizda o'chmas iz qoldirdi. Muhammad Raximxoniy soniy taxtga o'tirgan kunidan boshlab davlat boshqaruvida asosiy lavozimlarni egallab turgan shaxslarni nazardan o'tkazdi, lozim topgan kishilarni o'z o'rnidan qoldirdi, tajribali, ishning ko'zini biladigan, odil, uddaburon, davlatga xiyonat qilib pora olmaydigan, o'z mafaatlarini xalqdan ustun qo'ymaydigan va ko'zi to'q mard kishilarni zarur o'rinlarda tayinlaydi. Bu jarayonda ularni turli jarayonlarda sinash siyosatini yuritib zarur bo'lgan davlatga noloyiq odamlarni egallab turgan o'rnini bo'shlatib qo'ygan. Xonlikda "yasovulboshi" lavozimi bo'lib, ayan u shaxs poraxo'rlikka qarshi kurashgan, davlatga hamda hukumdorga bo'lishi mumkin bo'lgan xiyonatlarni oldini olgan, xonga yaqin kishilarni munosabatlarini o'rgangan, ular xonning yaqin odamlaridan tayinlanardi. XIX-XX asrlarda esa u kamariga pichoq taqib yurgan. Bu bilan Rahimxon davlat boshqaruvini izdan chiqishini saqlab qolib, poraxo'rliklardan mamlakatni saqlab qolgan. Xonlikda sud ishlari yaxshi tashkil topgan bo'lib, sudlar shariat qonun-qoidalariga asoslangandi. Sud ishlari boshlig'i qozikalon hisoblangan. U xon tomonidan tayinlanardi. Qozilar turli tuman nizolarni, kelishmovchiliklarni davlat nuqtai-nazardan odillik va holislik hamda betaraflik tamoyillari asosida hal qilishi lozim bo'lgan. Qonunlar barcha uchun teng ekanligini ta'minlash qozilar zimmasida bo'lgan. Qozillar ishida suistemolliklar kuzatilsa darhol lavozimlaridan ayrilgan va ishida korrupsiya kuzatilsa oqibat o'lim bilan ham yakunlangan bularni shaxsan Muhammad Rahimxon Feruz nazorat qilgan. Chindan ham har bir davrda korrupsiya har bir sohada kuztilishi mumkin edi. Shuning uchun davlatning eng asosiy sohalari hisoblangan joylarni hukumdorlarning o'zlari nazorat qilmasa vaziyat izdan chiqishi va davlat parokanda bo'lishi hech gap emas edi va hozir ham bu narsa o'z tasdig'ini topgan. Podsholar shularni inobatga olib iloji boricha asosiy tizim hisoblangan huquq tizimi va ma'muriy tizimlarni korrupsiyadan saqlashga harakat qilardilar, jumladan nazorat organlari ham tuzganlar.

Maqolamni davom ettirar ekanman horij siyosatdonlarini korrupsiyaga qarshi amalga oshirgan islohatlarini iloji boricha yoritaman. AQSHning yigirma oltinchi prezidenti Teodor Ruzvelt mamlakat prezidenti bo'lish bo'lish bilan bir qatorda haqiqiy lider ham edi. U korrupsiyaga qarshi kurashni "loviya poya" shaklida olib bordi. Ya'ni islohatlarni quyi tizimdan boshladi. Teodor Ruzvelt 1885-yil 6-mayda Nyu-York politsiya komissarlari kengashi prezidenti etib tayinlandi. Ruzvelt bu yerda o'zi istagan islohotlarni amalga oshirishga kirishdi. Bu ish maxalliy ahamiyatga ega bo'lsa-da, Nyu-York politsiyasi korrupsiya botib ketgani bilan dong taratgan edi. Ruzvelt ishdagi ijobiy siljishlar shaharginamas, butun mamlakat uchun ahamiyat kasb etadi hisoblardi. Nyu-Yorkda yangi komissar Vashingtonda ham qila olishmagan ishlarni amalga oshirdi. "Korrupsiyaga qarshi kurashishni iloji yo'q" degan kishilarga isbotlab qo'ydi. U kunduzlari kabinetda ma'muriy ishlarni bajarar va kechalari shaharni qonun buzarlilklardan tozalar va hatto lavozimlarini suistemol qiladigan hodimlarni shafqatsiz ishdan boshatardi. U Nyu-York politsiyasini korrupsiya sharmandaliki timsolidan AQSHning barcha katta shaharlari uchun ibrat maktabiga aylantirda va U prezident bo'lganida ham bu islohotlarni amalga oshirdi. Ruzvelt AQSh iqtisodiyotini kemirayotgan ko'pchilik monopolist trestlarni o'ziga dushman sifatida k'rardi. Uning fikricha, iqtisodiyot nazoratsiz rivojlanmaydi, uni xalq manfaatlaridan kelib chiqib qonunlar orqali boshqarish kerak. Moliya va ishlab chiqarishda hukumatning to'liq istisno etilishi katta-katta tabiiy monopoliyalarni vujudga keltiradi. Bular korrupsiyaga yo'l ochib beradi, deb hisoblardi. Teodor "adolatli qaror qabul qilish"ni o'ziga shior qilib olgan edi:

Bosh maqsadimiz – har kimni adolat bilan ta'minlash va har kishini qilgan xizmatiga yarasha baholashdir. Chunki chindan ham adolat bor joyda korrupsiya bo'lmaydi, nohaqliklar bo'lmaydi, har xil ko'z bo'yamachiliklar va albatta bunday davlat albatta kelajaki buyuk bo'ladi. Ruzvel prezidentlik davrida lavozimlar tanish-bilishchilik bilan taqsimlanadigan siyosiy homiylikning "chirigan tizimi"ga qarshi kurash boshlash orqali obro' ortirdi.

Gruziyaning isloh qilish yo'li juda oddiy va tushunarli bo'lib chiqdi: faoliyat ko'rsatmayotgan, korrupsiyadan yemirilib ketgan biror tashkilot mavjud ekan, vaziyatni to'g'irlashning yagona yo'li uni tugatish va yangisi tashkil etish deb aytardi Mixail Saakashivili. Gruziya prezidenti Mixail Saakashivili korrupsiya qarshi misli ko'rilmagan islohotlarni amalga oshirdi. O'sha vaqtlarda Gruziya ancha qoloqlashgan va korrupsiya bo'yicha yetakchi o'rinlarda turardi, korrupsiya shunchalar avj olgan ediki deyarli har bir sohada uchratish mumkin edi.

"Islohotlar asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirish kerak, deya maslahat bergan bizga xayrixoh yevropaliklarning maslahatlariga quloq solmadik. Biz juda dag'al harakat qildik va ichki ishlar vazirligidan bir kunda o'n besh ming xodmni ishdan bo'shatdik" deya ta'qidladi ichki ishlar vaziri Vano Merabishivili. Bu gaplardan fikrimizni aniqligini bilsak bo'ladi chunki chindan ham huquqni muxofaza qiluvchi organlar ham shu jirkanch ishlarga aralashgan edi, bu hodisalar zanjir shaklida ketgan edi bir sohadan,

ikkinchisiga, ikkinchisidan uchunchisiga. Oqibatda oddiy xalq esa qo'ldan hech nima kelmasdi.

Imtihonlar, testlar, suhbatlar talabgorlarning eng yaxshilarini saralab olish imkonini berdi. Yangi avtomabillar sotib olindi, yangi maxsus kiyimlar ishlab chiqildi va politsiya uchastkalarini ta'mirlash boshlandi. Ilgari maoshlar yigirma dollar bo'lgan politsiya xodimlarining ish haqqi o'n baravarigacha oshirildi. Vazirlikda o'z-o'zini nazorat qilish tizimi – poraxo'rlik faktlarini ichki tekshiruvdan o'tkazuvchi bosh inspeksiya tashkil etildi. Ilgari holat shunday ediki, natijada politsiyachi korrupsiydan qochib qutila olmasdi: oddiy xodim o'zi yiqqan o'ljani yuqoriga, yuqoridagi esa o'z navbatida zanjirma-zanjir yana-da yuqoriga uzatishi kerak edi. Bu kabi misollarni minglab keltirish mumkin, biroq korrupsiyani tag-tugidan yo'qotgan siyosatchilardan namuna keltirish bir muncha qiyinchilik tug'diradi, albatta.

Kelajakimiz va asosiysi jamiyatimiz farovon bo'lishini istasak bu kabi illatlarga qarshi birgalikda harakat qilishimiz darkor. Endi jamiyat tushunchasiga to'xtalib o'tsam maqsadga muvofiq bo'ladi naznimcha. Jamiyat so'zi "arabcha" so'zdan olingan bo'lib, jamoa, jam bo'lish bilan bir paytning o'zida jamlangan degan ma'nolarni anglatadi. Jamiyat iborasi bir necha ma'nolarda qo'llanadi: 1) kishilarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa maqsad hamda manfaatlari asosidagi birlashmalari, uyushmalari (masalan, kitob sevarlar jamiyat, dehqon-sohibkorlar jamiyati, bilim jamiyati, tabiat himoyachilari jamiyati, xususiy mulkdorlar jamiyati va h.k.); 2) insoniyatning muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichidagi yaxlit uyushmasi (ibtidoiy jamiyat, feodal jamiyat, inson va shaxslarning muayyan mamlakat ko'lamidagi uyushmasi va h.k.); 3) tabiatning bir bo'lagi, borliqning alohida olingan shakli, ijtimoiy turmush kechirishning ifodasi tarzidagi jamiyat. Jamiyat mohiyatini ilmiy anglash, uning yaxlit ilmiy manzarasini yaratish insoniyat ma'naviy taraqqiyotining mislsiz yutug'i hisoblanadi.

Jamiyatni faqat iroda kuchi bilan birlashtirib, yo'naltirib bo'lmaydi. Kishilarni bir jamoaga, guruhga, qolaversa, yaxlit bir butun jamiyatga birlashishiga sabab bo'luvchi omil – bu yagona maqsad va manfaatdir. Aynan manfaatlar umumiyliigi, ehtiyojlar mushtarakligi kishilarni bir jamiyat bo'lib maydonga chiqishini va birgalikda turmush kechirishini ta'minlaydi. Jamiyatimizda shunga o'xshagan, natijasi salbiy oqibatlarga olib keladiga fazilatlar bo'lar ekan biz kutgan jamiyat qurish imkonsizdir.

Gapning indallosi o'laroq avtaritorizmning kuchayishini korrupsiya bilan bog'lasak bo'ladi, jumladan korrupsiya tensizlikni kuchaytiradi, xalqni hokimiyatga bo'lgan ishonchini qisman yo'qotadi va shu bilan birga unidsizlikni keltirib chiqaradi. Monopoliyalarning shiddat bilan rivojlanishiga, (agar shunday mumkin bo'lsa albatta) korrupsiyanoing o'zining beqiyos o'rni katta buni amalda ko'ryapmiz, lekin har safar bu narsalrni og'irligi oddiy xalqqa tushaveradi. Shu o'rinda o'zlarimizning gap, "O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas" negaki ayrim nafsiga qul kimsalar bu illatlarda manfaatdor bo'ladi. Hozirgi davr sotsiolog va siyosatshunoslarining fikricha, xalq orasida o'zining o'rniga ega bo'lgan salbiy illatlarning ko'pchiligi korrupsiya bilan bog'liq ekan. Bunday misollarni minglab keltirishim mumkin, azaldan kurashib kelinaveradi, kurashilaveradi, lekin yana yangidan paydo bo'laveradi. So`zimizning isboti sifatida korrupsiya avj olgan davlatlar

botqoqlikka botadi, rivojlanmaydi va jiddiy sinovlardayoq yo`q bo`ladi yoki qaram bo`lib qolishi hech gap emas. Korrupsiyani avj olishiga bir nechta sabablar mavjud jumladan, qonunlar faqat yozilishi amalda esa umuman ishlamasligi; ayrim nafsiga qul kimsalarga esa bunday hol aynimudodir natijada ular kisalarni to`ldirishaveradi va pul chet el banklariga uloqtirilaveradi, kambag`al esa hayoti yaxshilanmay qolib ketaveradi. Men bu bilan faqat bir tarafni aybdir demoqchimasman chunki korrupsiyaga qarshi ikki tamonlama kurashilsa bu atama hozirda o`z kuchini yo`qotgan bo`larmidi... aytishadiku qars ikki qo`ldan chiqadi deb . Fikrimizni isboti sifatida Mo`g`ullar davlatini olish mumkin, korrupsiya yuqori nuqtasiga chiqqan bu davlat ko`p yashagani yo`q buni aytar ekanmiz Drayzerning yuqoridagi iqtibosi yodga kelaveradi azizlar.

E`tiborigizga korrupsiya reytingini havola qilishni lozim topdim (Indeks qanchalik yuqori bo`lsa , korrupsiya shu qadar tartibga solingan bo`ladi, 2022 – yil ma`lumoti)

1. Daniya (korrupsiya indeksi 88)
2. Yangi Zelandiya (korrupsiya indeksi 88)
3. Finlandiya(korrupsiya indeksi 85)
4. Shvetsiya(korrupsiya indeksi 85)
5. Shvetsariya(korrupsiya indeksi 85)
6. Singapur(korrupsiya indeksi 85)
7. Norvegiya (korrupsiya indeksi 84)
8. Niderlandiya (korrupsiya indeksi 82)
9. Germaniya(korrupsiya indeksi 80)
10. Luksemburg (korrupsiya indeksi 80)
140. O`zbekiston (korrupsiya indeksi 28)

E`tibor bergan bo`lsangiz reytingni yuqori o`rinlarida rivojlangan va ko`hna qitta vakillari turadi ( Yangi Zelandiyadan tashqari). Men bu bilan nima demoqchiman Osiyo qittasida bu narsa Sovet tizimidan meros qolgan desak bo`ladi fikrimizning isboti sifatida Mixail Bulgakovning " It Yurak " asrini o`qishni tavsiya beraman bu asarda bolshevizmning asl qiyofasi korrupsiya botoqiga botgan tizim haqida Bulgakov ramziy , ma`nolar ostida aks ettirgan. Lekin shuni unutmash kerakki o`rta aasrlarda asosiy ma`rifat va madaniyat tarqatuvchi mamlakatlar bu Islom davlatlari emasmi jumladan, shu o`rinda jadidchi bobomizni " Munozara " asaridaki fikrlarini aytsak maqsadga muvofiq bo`ladi: " bugungi Yevropa silivizatsiyasining manbai sharqdir, ilm ,axloqning, davlat va jamiyat boshqaruvining asl andozalari islom madaniyatidan olingan va tarraqqiy etgandir, madaniyatning asl egalari esa sharqdan olingan.

Korrupsiya rivojlangan davlatlarda ham tag tomiri bilan yo`q bo`lib ketmagan , ozgina bo`lsa ham saqlanib qolgan shu o`rinda quyidagi David Yunning iqtibosni keltirib o`tsam to`g`ri bo`ladi:

" Korrupsiya eng yaxshi narsalardan kelib chiqadi" ha alabatta bu o`z tasdiqini topgan inson DNKsida bu narsa azaldan bordir , ko`p uzoqqa ketmaylik yoshligimizda ota-onamiz va kattalar shu ishni qilsang, yoki yaxshi baho olsang falon narsa olib beraman yoki falon joyga olib boraman deganlarini ko`p eshitganmiz shu narsa korrupsiyaning boshlanishi bo`lishi mumkin, bu gap bilan bolaga narsa obermang demoqchimasman lekin bolani

yoshlikdanoq korrupsiyaga imunitet hosil qilishimiz kerak avvalo insonning vijdoniga bog`liq.

“ Agar xohlasangiz korrupsiyani yenging ammo do`stlar va oilani qamoqqa yuborishga tayyor bo`ling” ( Li Kuan Yu) bu bilan muallif nima demoqchiligi ko`pchilik tushib ulgurdi menimcha korrupsiyan qanday jirkanchligini yana bir isboti va turli yo`llar bilan bizni bo`g`ma ilondek bug`ayotganligini his qilishimiz mumkin. Shu o`rinda korrupsiya bitta shaxsni emas balki butun bir jamiyat kushandasi ekanligini ushbu fikr yaqqol tasdig`idir “ Korrupsiya foxishalikdan ham yomonroqdir chunki bunda bitta odamning emas balki butun xalq ahloqi xavf ostida qoladi” (Karl Krause)

Modernizatsiyalashgan davlatlar ham o`zidan- o`zi rivojlangani yo`q misol uchun Grigoriy Petrovning “ Oq nilufarlar yurtida” Finlandiyaning qurilishi va botqoqliklar o`lkasidan oq nilufarlar o`lkasiga aylanganini, Bunda bir qancha ziyoli insonlar xizmati bilan ta`lim tizimini o`zgartirish orqali bir millatning uyg`onishi va hozirgi taraqqiyotiga erishishi jonli tasvirlab berilgan.

---

*Korrupsiya bilan bir qatorda antikorrupsiyani ham unutmasligimiz lozim, siz bilan birgalikda korrupsiya qarshi olib borilayotgan islohotlarni ko`rib chiqamiz. Dastlab xalqaro miqyosdagi antikorrupsiya islohotlarini o`rganamiz. 1999 yil 4 noyabrdagi “Korrupsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to`g`risida” gi Konvensiya, 1999 yil 27 yanvardagi Yevropa Kengashining “Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to`g`risida” gi Konvensiyasi, 2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi, 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;*

---

O`zbekiston Respublikasi prezidentimiz Shavkat Mirziyove tashabbusi bilan bir qator korrupsiyaga qarshi islohotlar o`tkazilmoqda jumladan 2017-2021 yillarda mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini bo`yicha mamlakatimizning muhim sohalarida bir qator islohotlar o`tkazildi:

1. Parlamentda korrupsiya qarshi bir qator islohotlar o`tkazildi.
2. Davlat xizmatlari ko`rsatish tizimi isloh qilindi.
3. Korrupsiyaviy omillarni keltirib chiqaruvchi ortiqcha byurokratik to`siqlar bartaraf etildi.
4. Litsenziya va ruxsatnoma berish tartiblari soddalashtirildi.
5. Oliy ta`lim tizimidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar bartaraf etilmoqda.
6. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligi va hisobdorligi ta`minlanmoqda.
7. Shaffof davlat xaridlari tizimi yaratildi.
8. Ishga qabul qilishning ochiq tanlov mexanizmi yo`lga qo`yildi.
9. “Korrupsiyasiz soha” loyihasi amalga oshirilmoqda.
10. Barcha davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi muvofiqlik tizimlari joriy etilmoqda.

Natijada korrupsiyaviy qonunbuzilish holatlari, budjet mablag`larining talon-taroj qilishishini oldi olindi hamda moliyaviy xato vakmachiliklar aniqlandi. 2021-yil 1-oktabrdan barcha davlat idoralarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksida ham 210 -211-moddalarida korrupsiya aks etdi bu antikorrupsiya bo'yicha islohotlardan biri bo'lib xizmat qildi.Xulosa o'rinda shuni aytishimiz lozimki Yurtboshimiz tashabbusi bilan korrupsiyaga qarshi kurashish jadallik bilan rivojlanmoqda, ta'lim tizimimizda korrupsiya yo'qolmoqda , Sportda ham korrupsiyaga qarshi anchagina ishlar amalga oshirildi, yaqinda rivojlangan davlatlar qatoridan o`rin olsak ajab emas alabatta. Jadal rivojlanishda odimlayotgan buyuk O'zbekistonda korrupsiya tak-tomiri bilan yo`q bolib ketishiga Misr piramidalaridek mustahkam ishonch bildirib maqolamni shu nuqtada yakunlayman, zero korrupsiyasiz jamiyat sari qadamni birga tashlaymiz!

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O`zMe. Birinchi jild. Toshkent,2000-yil
2. Amir Temur "temur tuzuklari"
3. Shixnazar Matrasul va Davlatyor Rahim ""Feruz"
4. Teodor Ruzvel "Lider shaxsiyati"
5. Larisa Burakova "Gruziya muvofaqiyatga qanday erishdi"
6. Transparency International
7. Lex. uz